

## **GEOGRAFIYA FANINING O'RGANILISH TARIXI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI**

**Tovbayev G'ofur**

*Guliston davlat universiteti,*

*"Ekologiya va geografiya" kafedrasi tayanch doktaranti*

**Umurzoqov Shahboz**

*Guliston davlat universiteti,*

*"Ekologiya va geografiya" kafedrasi talabasi*

**Annotatsiya:** Bugungi kunda barcha fanlarning paydo bo'lish tarixi mavjud chunki bu fan nima uchun kerak degan savollarga javob toppish maqsadida barcha fanlar o'rganilish tarixi mavjud. Ushbu maqolada esa Geografiya fanining o'rganilish tarixi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** Geografiya, o'rganilish tarixi, fanning rivojlanishi, geografiya vaifalari, xarita, globus, yer.

Geografiya-yer haqidagi eng qadimgi fanlardan biri hisoblanib, barcha fanlarning o'rganilish tarixi bo'lgani kabi geografiya fanining ham o'z o'rganilish tarixi mavjud. Geografiya fani qadimdan rivojlangan va o'rganilgan fan hisoblanadi. Geografiya fani insonga qayerda va qachon yashash kerak ekanligi haqida ma'lumot beruvchi fanlardan biri hisoblanadi. Geografiya fanini xarita, globus va ufq tomonlarisiz tasavvur qilish qiyin hisoblanadi, chunki, bu narsalar geografiyaning bir bo'lagi bo'lib xizmat qiladi.

Geografiya fani dastlab yunon olimi Erosfen kitob yozib uni Geografiya deb atagan. Bu so'zning ma'nosi (geo- yer ) (grafo – yozaman ) degan ma'noni anglatadi. Bundan chiqdiki geografiya so'zining ma'nosi yerni tasvirlab yozaman degan ma'noni anglatar ekan. Geografiyani o'rganadigan kishilarni geograf olimlar deb ataymiz. Uzoq vaqtgacha geograf olimlar yer yuzining tabiatini va aholisini o'rganish bilan ham band bo'lganlar.

Geografiya eng qadimgi va navqiron fanlardan biri. Geografik kashfiyotlar, g'oya va bilimlarning rivojlanish husussiyatlariga asoslanib, bu fanning tarixidagi quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- ✓ Qadimgi yoki antik davr bosqichi
- ✓ O'rta asrlar bosqichi
- ✓ Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi
- ✓ Ilmiy geografik ishlar bosqichi
- ✓ Hozirgi zamon bosqichi

### **Antik davr bosqichi.**

Eng dastlabkisi bu qadimgi yoki antik davr deb ataluvchi bosqich hisoblanadi. Bu bosqichda odamlar o'zlari uchun yashash uchun qulay bo'lgan joylarni qidirish bilan boshlangan. Bu davrda rimliklar va yunonlar ma'lum hududlarni tasvirlash va xaritaga tushirish bilan shug'ullanishgan.



***O'rta asrlar bosqichi.***

Bu bosqichda umuman ilm-fan asosan sharqda xususan O'rta Osiyoda, Misr va Eronda rivojlanib shakllana boshlagan. Jumladan bu bosqichda Muso al- Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy katta hissa qo'shishgan. Beruniyning geografiyaga oid jami 22 ta asari mavjud bo'lib, shundan 12 tasi geodeziya, 4 tasi kartografiya, 3 tasi iqlimshunoslik va 3 tasi mineralogiya kabi sohalarga bag'ishlangan.

***Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi.***

Geografik rivojlanish boshqichlari ichida eng katta ahamyatga ega bo'lgan bosqich bu buyuk geografik kashfiyotlar davri hisoblanadi. Bu bosqich o'z ichiga XV asrning ikkinchi yarmini oladi. XVI asrning oxirlarida boshlab Janubiy Osiyo, Avstraliya va Okeaniyaning hududlarini Inglizlar va Gollandlar tomonidan o'rganilib boshlandi. Bu bosqichda kashf etilgan narsalardan eng asosiysi bu Avstraliya materigidir. Avstraliya 1605- yilda Golland sayyohi Yanszon tomonidan kashf etilgan.

***Ilmiy geografik ishlar bosqichi.***

XVII asrga kelib fanlarning rivojlanishida keskin ildamlash ro'y berdi. Geograflar tomonidan maxsus ilmiy ekspeditsiyalar olib borila boshlandi. Bunday ekspeditsiyalardan eng muhimmi Bering va Chirikovlar tomonidan olib borilgan rus ekspaditsiyalari, hamda, J.Laperuz tomonidan olib borilgan fransuz ekspeditsiyasi hisoblanadi. Shu kabi muhim ekspeditsiyalardan yana biri J.Kuk tomonidan 3 marotaba olib borilgan inglizlar ekspeditsiyasidir. Bu ekspeditsiya davomida Kurill orollari, Kamchatka hamda Chukotka yarim orollari va boshqa muhim hududlar kashf qilindi.

***Hozirgi zamон bosqichi.***

Geografiya fan-texnika inqilobi ta'sirida jadal rivojlanmoqda. Bu bosqichda geografiya fanining rivojlanishidagi asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat: geografik tadqiqotlarda modellashtirish va tajriba usullari, geografik axborot tizimlari, kompyuter texnologiyalari, kosmik usullar keng qo'llanilmoqda.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Xidiraliyev.K.E Karshiboyeva L.K Tovbayev.G'. Z. Geografiyaga kirish
2. P. G'ulomov. R. Qurban niyozov. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi. Toshkent – yangiyo'l poligraf servis -2015.
3. A.Soatov. A. Abdulqosimov. Materiklar va okeanlar geografiyasi. Toshkent -2017
4. O'zbekiston milliy emsklapediysi davlat nashriyoti 2017 mualliflar Sh.M. Sharipov, V.N. Fedorko , N .I Safarova , V. A. Rafiqov.